



MUVAFFAQIYAT VA MAG'LUBIYAT FALSAFASI

Mamadaliyeva Feruza Asrorovna

Toshkent davlat Agrar Universiteti dotsenti

Ergasheva Zilola

Toshkent davlat Agrar Universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20605890>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 04-iyun 2026 yil

Ma'qullandi: 06-iyun 2026 yil

Nashr qilindi: 09-iyun 2026 yil

KEYWORDS

talaba, muvaffaqiyat falsafasi, mag'lubiyat, akademik stress, gnoseologiya, stotsizm, dunyoqarash, o'zlikni anglash.

ABSTRACT

Ushbu maqolada talabalar hayotida tez-tez uchraydigan akademik stress va muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo'rquvi falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Muallif muvaffaqiyat va mag'lubiyat tushunchalarining subyektiv tabiatini gnoseologik (bilish nazariyasi) tamoyillar asosida yoritib beradi. Maqolada stotsizm falsafasi va ekstensial yondashuvlardan foydalangan holda, talabalarda qiyinchiliklarga nisbatan turg'un dunyoqarashni shakllantirish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqotning xulosasi shundan iboratki, akademik muvaffaqiyatsizlik shaxsning intellektual rivojlanishidagi muhim tajriba va bilish bosqichi bo'lib xizmat qiladi.

Insoniyat tarixida bilim olish jarayoni doimo murakkab va ziddiyatli kechgan. Ayniqsa, zamonaviy axborot jamiyatida oliy ta'lim nafaqat intellektual salohiyatni oshirish, balki kuchli ijtimoiy raqobat maydoniga ham aylandi. Bugungi kun talabasi o'zini anglash va dunyoni bilish jarayonida ikki qarama-qarshi qutb — muvaffaqiyat va mag'lubiyat o'rtasida yashaydi. Biroq, falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, bu ikki tushuncha shunchaki baho yoki natija emas, balki inson ruhining yuksalishi va dunyoni bilishining (gnoseologiyaning) o'ziga xos bosqichlaridir.

Hozirgi ta'lim tizimidagi "muvaffaqiyat kulti" talabalarda akademik stress va doimiy qo'rquvni keltirib chiqarmoqda. Ko'p hollarda talaba uchun past baho yoki o'zlashtira olmaslik — bu shaxsiy fojia sifatida qabul qilinadi. Vaholanki, muvaffaqiyat va mag'lubiyat falsafasi bizga bu tushunchalarning nisbiyligini o'rgatadi. Agarda biz bilish nazariyasiga murojaat qilsak, har qanday xato — bu haqiqatga yetishish yo'lidagi muhim tajribadir.

Ushbu maqolaning maqsadi talaba hayotida uchraydigan akademik qiyinchiliklarni falsafiy jihatdan tahlil qilish, stotsizm va gnoseologiya tamoyillari asosida stressni yengishning ma'naviy-metodologik usullarini ko'rsatib berishdan iborat. Biz muvaffaqiyatni nafaqat tashqi natija, balki ichki barkamollik va bilimga bo'lgan munosabat sifatida qayta tahlil qilishimiz zarur.

1. Muvaffaqiyatning falsafiy tahlili: Tashqi natija va ichki mohiyat

Falsafa tarixida muvaffaqiyat tushunchasi ko'pincha insonning o'z mohiyatini anglashi va unga erishishi (evdaymoniya) bilan bog'liq bo'lgan. Biroq zamonaviy ta'lim paradigmasida muvaffaqiyat ko'proq miqdoriy ko'rsatkichlar bilan o'lchanmoqda. Bu esa talabaning bilimga bo'lgan gnoseologik intilishini ikkinchi darajaga tushirib qo'yadi. Bunga misol qilib o'tmishda

muvaffaqiyat inson o'zligini, ichki imkoniyatlarini, hayotdan maqsadini va komillik bosqichlarini tushungan Aristotel, Suqrot, Demosfen kabi ko'plab misollar keltirish mumkin. Zamonaviy Ta'lim paradigmasida esa muvaffaqiyat inson egallagan bilimi bilan emas qay darajada shuxrat qozongani, oylik daromadi qancha ekanligi bilan o'lchanmoqda. Buning natijasida yoshlar ongida bilim olishga nisbatan qiziqish pasayib oson pul toppish yo'llari ko'proq qiziqtiradigan mavzuga aylanib bormoqda.

Arastu "Nikomax etikasi" asarida muvaffaqiyat va baxtni insonning o'z fazilatlarini eng yuqori darajada namoyon qilishi deb ta'riflagan ¹. Talaba hayoti misolida bu shuni anglatadiki, haqiqiy muvaffaqiyat — bu olingan yuqori baho emas, balki o'sha fanni o'zlashtirish jarayonida erishilgan intellektual o'sishdir. Pragmatizm falsafasi vakili Jon Dyui ta'lim haqida gapirganda, bilimni "hayotga tayyorgarlik emas, balki hayotning o'zi" deb atagan ². Demak, muvaffaqiyatni faqat yakuniy diplom bilan bog'lash — talabalik davrining falsafiy mazmunini toraytirib qo'yadi. Talaba o'zini muvaffaqiyatli his qilishi uchun u tashqi rag'batga (bahoga) emas, balki ichki kashfiyot zavqiga tayanmog'i lozim. Afsuski yoshlar kasb tanlash borasida ham o'z imkoniyat va bilim darajasiga emas, balki olgan diplomlari qanchalik foyda keltirishiga qarab kasb tanlashmoqda. Natijada ilmiy dargohlarda haqiqiy mutaxassislar tayyorlanishi jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Zero, oliy ta'lim faqatgina mehnat bozori uchun „ishchi kuchi“ yetkazib beruvchi mexanizm emas, balki eng avvalo, insonning intellektual va axloqiy qiyofasini shakllantiruvchi maskandir. Falsafiy nuqtai nazardan, bu holatni insonning o'z o'zligidan begonalashishi (alienatsiya) deb atash mumkin. Talaba o'zining haqiqiy qiziqishi va qobiliyatini diplomning ijtimoiy nufuzi uchun qurbon qilar ekan, u o'z hayot yo'lini emas, balki jamiyat tomonidan tiqishtirilgan „shablon“ hayotda yashay boshlaydi. Natijada talabada bu akademik stressing bosh omili bo'lib, bilim olish zavqini oddiy majburiyatga aylantirsa, ilmiy dargohlar uchun „ma'naviy qashshoq mutaxassis“ning shakllanishiga olib keladi

2. Mag'lubiyatga stotsizm nuqtai nazaridan qarash: Nazorat va qabul qilish

Akademik stressning asosiy sababi — talabaning o'zi nazorat qila olmaydigan tashqi omillarga (professorning subyektiv fikri, savollarning tasodifiy murakkabligi) haddan tashqari bog'lanib qolishidir. Stotsizm falsafasining yirik vakili Epiktet o'zining "Enxiridion" asarida shunday yozadi: "Dunyoda shunday narsalar borki, ular bizga bog'liq va shunday narsalar borki, ular bizga bog'liq emas" ³. Talabalar bahoni emas o'z xatti-harakatlarini nazorat qilishlari kerak. Biz ba'zi narsalarni o'zgartira olmasmiz, lekin unga nisbatan fikr va munosabatlarimizni o'zgartirsak bo'ladi.

Talaba uchun bu "dixotomiya" (ikki bo'linish) tamoyili akademik xotirjamlikning kalitidir:

Ichki nazorat doirasi: Darsga tayyorgarlik, adabiyotlarni o'qish, vaqtni to'g'ri taqsimlash va halollik. Bular talabaning ixtiyoridagi narsalardir.

Tashqi natija doirasi: Imtihan natijasi, reytingdagi o'rni yoki atrofda gilarning tanqidi. Bular tashqi tasodiflar va boshqa insonlarning irodasiga bog'liq. Ya'ni imkoniyatlarning

¹ Aristoteles. Nikomakhova etika. — Moskva: Eksmo-Press, 1997.

² Dewey, J. Democracy and Education. — New York: Macmillan, 1916. (Dyuining ta'lim falsafasi bo'yicha asosiy asari).

³ Epiktet. V chiyom nashe blago? (Enxiridion). — Moskva: Rimskaya filosiya, 2011.

barchasini sarf qilgan holatda tayyorlanish kerak va qolgan qismini hayot izmiga tashlash kerak bo'ladi. Har doim „nega bunday bo'ldi?“ deb emas, shunday bolishi kerak ekanda deb yashash ham foydadan holi bo'lmaydi.

Mark Avreliy o'zining "O'zim bilan tanho" asarida ta'kidlaganidek, insonni voqealar emas, balki o'sha voqealar haqidagi shaxsiy tasavvurlari azoblaydi ⁴. Agarda talaba "past baho — bu mening qobiliyatsizligim" degan tasavvurdan voz kechib, unga shunchaki "to'g'rilanishi kerak bo'lgan axborot" sifatida qarasa, mag'lubiyat o'zining salbiy quvvatini yo'qotadi. Bu yondashuv talabada emotsional intellektni oshirib, uni ijtimoiy bosimlardan himoya qiladi.

3. Xato qilish huquqi: Karl Popperning "falsifikatsiya" nazariyasi talaba hayotida

Ilmiy bilish jarayonida xato — bu shunchaki kamchilik emas, balki haqiqatga eltuvchi yagona yo'ldir. Karl Popper o'zining "Taxminlar va raddiyalar" asarida ta'kidlaganidek, ilm-fan xatolarni inkor etish orqali emas, balki ularni aniqlash va tuzatish orqali rivojlanadi ⁵. Ushbu falsafiy tamoyil talabaning akademik faoliyati uchun ham metodologik ahamiyatga ega.

Ko'pincha talabalar "xato qilishdan qo'rqish" sindromi tufayli yangi g'oyalarni o'rta tashlashdan yoki murakkab loyihalarga qo'l urishdan cho'chiydilar. Biroq, Popper gnoseologiyasiga ko'ra, har bir noto'g'ri yechilgan masala yoki muvaffaqiyatsiz urinish — bu qaysi yo'nalish noto'g'ri ekanligini ko'rsatuvchi muhim axborotdir. Shunday qilib, mag'lubiyat talabani bilimsizlikdan bilimga yaqinlashtiradi. Bir narsani unutmaslik kerakki, harakat qilmagan inson xato qilmaydi, lekin buni o'zi ham juda katta xatodir. Zotan, haqiqiy bilimga erishish- bu xatolardan xoli bo'lish emas, balki o'z xatolarini anglash va ularni inkor etish orqali to'g'ri yo'lni toppish demakdir. Shu ma'noda, talaba imtihondagi muvaffaqiyatsizlik bu uning qobiliyatsizligi emas, balki o'z bilimlaridagi bo'shliqlarni aniqlash uchun berilgan gnoseologik imkoniyatdir.

4. Talabalar o'rtasidagi raqobat va "ijtimoiy taqqoslash" muammosi

Talabalarning o'z yutuqlaridan qoniqmasliklariga sabab bo'ladigan yana bir omil — bu boshqalar bilan doimiy solishtirishdir. Jan-Jak Russo "Odamlar orasidagi tengsizlikning kelib chiqishi haqida mulohazalar" asarida insonning o'zligini boshqalar ko'zi bilan ko'rishga intilishi uni baxtsiz qilishini ta'kidlaydi ⁶. Shaxs tarbiyasida ham uni boshqalar bilan solishtirgan holatda tarbiya qilish birinchi navbatda, shaxs „Men“ining sinishiga, ikkinchi tomondan esa boshqalarga nisbatan agressiv ruhda shakllanishiga sabab bo'ladi.

Zamonaviy universitet muhitida "reyting" va "raqobat" tizimi talabani o'zining ichki intellektual o'sishidan chalg'itib, tashqi ustunlikka yo'naltiradi. Falsafiy yondashuv shuni ko'rsatadiki, haqiqiy akademik yuksalish — boshqalardan o'zish emas, balki insonning "kechagi o'zidan" o'zishidir. Bu esa raqobat natijasida kelib chiqadigan stressni sog'lom motivatsiyaga aylantirish imkonini beradi. Shu ma'noda, akademik raqobat talaba uchun o'zgalardan ustun kelish vositasi emas, balki o'z salohiyatini sinovdan o'tkazish maydoni bo'lmog'i lozim. Falsafiy mushohada yuritish qobiliyati talabaga tashqi reytinglardagi o'rnidan qat'i nazar, o'zining individual qiymatini anglash imkonini beradi. Zero, haqiqiy ma'rifat — bu raqamlar bilan

⁴ Mark Avreliy. O'zim bilan tanho (Mulohazalar). — Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2022.

⁵ Popper, K. Predpolozheniya i oproverjeniya: Rost nauchnogo znaniya. — Moskva: AST, 2004.

⁶ Russo, J.J. Traktatlar (Odamlar orasidagi tengsizlikning kelib chiqishi haqida mulohazalar). — Toshkent: "O'zbekiston", 2004.

o'lchanadigan natija emas, balki insonning dunyoni va o'zligini anglash darajasidir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, talabalik hayotidagi har qanday muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikka gnoseologik va ekzistensial yondashshish davr talabi ekanligini ta'kidlash joiz.

XULOSA

O'tkazilgan falsafiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, talaba hayotidagi muvaffaqiyat va mag'lubiyat tushunchalari faqatgina akademik ballar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Stotsizmning "ichki nazorat" tamoyili va Poppening "xatolar orqali bilish" nazariyasi talabalarga stressli vaziyatlarda ruhiy barqarorlikni saqlashga yordam beradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ta'lim jarayonining asosiy maqsadi — muvaffaqiyatsizlikdan qochish emas, balki har qanday natijadan falsafiy xulosa chiqara oladigan, tanqidiy fikrlovchi shaxsni shakllantirishdir. Faqat shundagina talaba nafaqat "diplomli mutaxassis", balki hayotning har qanday sinovlariga tayyor bo'lgan komil inson bo'lib yetishadi. Zero, talabalik — bu shunchaki kasbiy ko'nikmalar yig'indisi emas, balki insonning o'z tafakkur chegaralarini kashf etish davridir. Maqolada tahlil qilinganidek, muvaffaqiyat va mag'lubiyatga nisbatan falsafiy immunitetning shakllanishi, kelajakda mutaxassisning nafaqat o'z sohasida, balki ijtimoiy hayotning murakkab ziddiyatlarida ham munosib o'rin topishini kafolatlaydi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim paradigmasida "baho kulti"dan "bilim va donishmandlik" sari burilish yasash — davr taqozosidir. Falsafiy mushohada yuritish qobiliyati talabani tashqi tasodiflar qo'rquvidan xalos etib, uni o'z hayotining ongli sub'yektiga aylantiradi."

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Aristoteles. Nikomakhova etika. — Moskva: Eksmo-Press, 1997.
- 2.Epiktet. V chyom nashe blago? (Enxiridion). — Moskva: Rimskaya filosofiya, 2011.
- 3.Dewey, J. Democracy and Education. — New York: Macmillan, 1916. (Dyuining ta'lim falsafasi bo'yicha asosiy asari).
- 4.Mark Avreliy. O'zim bilan tanho (Mulohazalar). — Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2022.
- 5.Popper, K. Predpolojeniya i oproverjeniya: Rost nauchnogo znaniya. — Moskva: AST, 2004.
- 6.Russo, J.J. Traktatlar (Odamlar orasidagi tengsizlikning kelib chiqishi haqida mulohazalar). — Toshkent: "O'zbekiston", 2004.